



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI*(2018 yil yanvar-dekabr)*

Qoraqalpog'iston Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4438,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 495,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 33,2 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 3942,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 264,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 %ga ko'paygan) tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**

2017 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri, Beruniy, Qo'ng'iro't va To'rtko'l tumanlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'rish sur'atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (29,4 foiz), Beruniy (9,9 foiz), To'rtko'l (9,0 foiz), Xo'jayli (9,5 foiz) va Amudaryo (7,1 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,2 %ga o'sdi va 495,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,2 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3942,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,2 %ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,8 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


2017 yil  
yanvar-dekabr

2018 yil  
yanvar- dekabr



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



■ Kichik tadbirkorlik  
■ Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qonliko`l (99,8%), Qorao`zak (99,3%), Kegeyli (99,4%), Taxtako`pir (99,3) va Shumanay (99,1%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (25,9%), Taxiato`sh (24,5%) va To`rtko`l (13,9%) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	495,6	133,2	3 942,9	103,2
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	21,1	87,6	293,0	106,0
Beruniy	12,1	137,4	425,6	105,2
Qonliko`l	0,2	102,5	117,8	103,3
Qorao`zak	1,1	108,7	153,1	102,6
Kegeyli	0,7	3,4	114,6	124,4
Qo`ng`irot	10,4	4,5 k	286,5	102,5
Mo`ynoq	0,8	2,1 k	32,6	103,5
Nukus	0,7	73,2	82,6	102,4
Taxiato`sh	25,5	127,3	78,3	99,6
Taxtako`pir	0,9	106,0	120,9	102,4

To'rtko'l	55,5	117,7	343,2	104,3
Xo'jayli	9,4	2,3 k	414,5	102,8
Chimboy	15,0	7,2 k	158,1	97,1
Shumanay	0,9	190,6	97,9	103,4
Ellikqal'a	3,9	4,8 k	257,1	102,8
Nukus sh.	337,4	141,5	967,3	101,0

2018 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 2391,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o'sish qayd etilib, eng yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri (4168,4 ming so'm), Taxtakopir (3061,2 ming so'm) va Xo'jayli (3520,3 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mo'ynoq (1074,8 ming so'm), Kegeyli (1293,8 ming so'm) va Taxiotosh (1433,4 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika tumanlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

### **Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	<b>Ming so'm</b>	<b>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2 391,4</b>	<b>104,3</b>

*tumanlar:*

Amudaryo	1 624,3	102,8
Beruniy	2 355,6	103,9
Qonliko`l	2 360,1	102,1
Qorao`zak	2 952,8	101,7
Kegeyli	1 293,8	101,9
Qo`ng`irot	2 326,1	104,1
Mo`ynoq	1 074,8	103,4
Nukus tumani	1 714,5	100,2
Taxiatosh	1 433,4	103,9
Taxtako`pir	3 061,2	101,9
To`rtko`l	1 914,0	104,2
Xo`jayli	3 520,3	102,9
Chimboy	1 511,3	103,8
Shumanay	1 783,9	102,9
Ellikqal`a	1 690,1	101,9
Nukus shahri	4 168,4	107,7

Jumladan, 2018 yilning yanvar- dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,9 %ni tashkil etib, 129,8 mlrd. so`mga etdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 10,2 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASNIING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1117,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 3,8 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, 659,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,3 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 59,0 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslaganda, Qorao'zak (100,0%), Qonliko'l (100,0%) Mo'ynoq (100,0%) Nukus (100,0%) va Ellikqal'a (100,0%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 41,0 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Nukus shahri (39,7%), Xo`jayli (79,9%) va Chimboy (29,3%) tumanlarida kuzatildi.


### Tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>1117,8</b>	<b>103,8</b>	<b>458,3</b>	<b>95,7</b>	<b>659,5</b>	<b>110,3</b>
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	8,2	122,4	0,6	9,4 k	7,6	114,4
Beruniy	77,7	170,7	0,2	3,0 k	77,6	170,6
Qonliko`l	8,4	87,9	-	-	8,4	88,1
Qorao`zak	1,7	96,6	-	-	1,7	96,6
Kegeyli	4,2	9,2 k	-	-	4,2	9,8 k
Qo`ng`irot	26,3	154,6	-	-	26,3	154,7
Mo'ynoq	0,6	102,7	-	-	0,6	102,7
Nukus	29,8	55,4	-	-	29,8	55,4
Taxiatosh	7,8	34,6	1,1	29,2	6,7	35,7
Taxtako`pir	8,1	103,7	-	-	8,1	104,9
To`rtko`l	46,2	88,4	9,1	33,4	37,2	147,9
Xo`jayli	251,4	127,7	200,9	107,2	50,5	5,3 k
Chimboy	9,1	71,9	2,7	62,4 k	6,4	51,0
Shumanay	0,1	95,0	-	46,5	0,1	104,6



Ellikqal`a	24,5	67,9	-	34,3	24,5	67,9
Nukus shahri	613,5	100,1	243,7	93,5	369,8	104,9

**Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`ati Taxi'atosh (34,6 %) tumanida qayd etildi.